

## AUDITORLIK XULOSASINING MOHIYATI, TURLARI VA TUZILISHI

Sultonova Sabina

SamDUKF Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti

Bank ishi va audit yōnalishi 3- kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada auditorlik xulosasining mohiyati, uning asosiy turlari va tuzilishi tahlil qilinadi. Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligin tasdiqllovchi muhim hujjat bo‘lib, u korxona moliyaviy faoliyatining haqqoniyligini baholashga xizmat qiladi. Maqolada auditorlik xulosasining shartsiz, shartli, rad etilgan va fikr bildirishdan bosh tortilgan turlari yoritiladi. Shuningdek, auditorlik xulosasining tarkibiy tuzilishi, unda ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan muhim jihatlar va xalqaro standartlarga muvofiqligi haqida ma’lumot beriladi. Ushbu tadqiqot auditorlik faoliyatining shaffofligini oshirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligin ta’minlashga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** auditorlik xulosasi, auditorlik turlari, moliyaviy hisobot, shartsiz xulosa, shartli xulosa, rad etilgan xulosa, auditorlik standarti, ishonchlilik, moliyaviy tahlil.

### Kirish

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligin tasdiqllovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Bu xulosa korxonaning moliyaviy natijalari, aktivlari va majburiyatları to‘g‘risida mustaqil auditor tomonidan berilgan fikrni aks ettiradi. Auditorlik jarayonining natijasi sifatida tuziladigan ushbu hujjat investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada auditorlik xulosasining mohiyati, turlari va tuzilishi haqida batassil ma’lumot beriladi.

Auditorlik xulosasi - moliyaviy hisobotning haqqoniyiligi (to'g'riliqi) va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan va xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat.

Auditorlik xulosasi auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

Auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasi shaklining bir xilligiga riosa qilishi kerak. Auditorlik xulosasi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga yo'llanib, buyurtmachining barcha zaruriy rekvizitlari ko'rsatilishi kerak.

Auditorlik xulosasining kirish qismi auditorlik tashkilotining quyidagi rekvizitlarini o'z ichiga olishi kerak:

- auditorlik tashkilotining yuridik manzili va telefonlari;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya raqami, berilgan sana va litsenziya bergen organning nomi;
- auditorlik tashkiloti davlat ro'yxatiga olingani to'g'risidagi guvohnoma raqami;
- auditorlik tashkiloti hisob-kitob varag'ining raqami;
- auditorlik tekshiruvida ishtirok etgan auditor (auditorlar) ning, shuningdek, auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi va otasining ismi.

Izohlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi quyidagi hollarda tuziladi:

- agar auditorlik tashkiloti yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olib, alohida-alohida yoki umumiyl holda ko'rib chiqilayotgan buzib ko'rsatishlarning ta'siri muhim hisoblanib, biroq moliyaviy hisobotning ko'pchilik muhim elementlariga ta'sir qilmaydi degan xulosaga kelganda;
- agar auditorlik tashkiloti o'z fikrini asoslash uchun yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo'lmasganda, biroq u aniqlanmagan buzib ko'rsatishlarning ta'siri moliyaviy hisobot uchun muhim bo'lishi mumkin, lekin

moliyaviy hisobotning ko‘pchilik muhim elementlariga ta‘sir qilmaydi degan xulosaga kelganda.

Auditorlik xulosasi quyidagi elementlarni o’z ichiga oladi:

- a) nom («Auditorlik xulosasi» yoki «Auditorlik tashkilotining xulosasi»: ikkala nom teng huquqli);
- b) adresatning nomi;
- v) kirish qismi;
- g) qayd etish qismi;
- d) yakuniy qism;
- e) auditorlik xulosasini berish sanasi;
- j) auditorlik tashkiloti manzili;
- z) auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining imzosi

Xalqaro standartlarga binoan auditorlik xulosalarining quyidagi turlari mavjud:

- a) ijobiy auditorlik xulosasi;
  - b) shartli ijobiy auditorlik xulosasi;
  - v) salbiy auditorlik xulosasi;
  - g) xulosa berishdan bosh tortish.
- ) xulosa berishdan bosh tortish.

Ijobiy auditorlik xulosasi. Auditorlik tashkiloti xo‘jalik yurituvchi sub’ektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini haqqoniy yoritadi va xo‘jalik yurituvchi sub’ekt amalga oshirgan moliyaviy va xo‘jalik operatsiyalari mamlakat qonunchiligi talablariga muvofiq degan fikrga kelganda ijobiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak.

Shartli ijobiy auditorlik xulosasi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning moliyaviy hisobotida ayrim xatolar mavjud bo’lganida, ammo mazkur xatolar unchalik muhim bo’lmasanida tuzilishi kerak.

Salbiy auditorlik xulosasi. Auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotida, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan bartaraf etilmasa, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin bo'lgan buzilishlar mavjud degan fikrga kelsa, salbiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin qonunchilik talablariga muvofiq kelmaydigan hollarda ham salbiy auditorlik xulosasi tuziladi.

Odatda xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatining auditorlik tashkilotining aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritish to'g'risidagi fikriga qo'shilmasligi salbiy auditorlik xulosasini tuzishga sabab bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan buzilishlarni bartaraf etgan holda salbiy auditorlik xulosasi tuzilmaydi. Auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortish. Auditorlik tekshiruvi hajmining cheklanganligi tufayli auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobot to'g'risidagi fikrni ifodalash uchun etarlicha auditorlik dalillarini olishi mumkin bo'lmasa, auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortishi mumkin.

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi, auditoring ishonchi komil emasligi va (yoki) rozi emasligi yuzaga keltirgan cheklashlarga doir ko'rsatmalarni o'z ichiga olishi kerak. Auditorlik xulosasi tegishli moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan e'lon qilinishi mumkin. Auditorlik tekshiruvini o'tkazmasdan tuzilgan yoki auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha tuzilgan, lekin auditorlik tekshiruvi davomida auditor (auditorlar) olgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning hujjatlari mazmuniga muvofiq kelmaydigan auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan yolg'on hisobot va xulosa deb hisoblanadi. Qasddan yolg'on auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tuzish qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi. Noto'g'ri auditorlik xulosasini tuzganlikda aybdor bo'lgan auditorlik tashkiloti va shaxslarning javobgarlikka tortilganligi xo'jalik yurituvchi sub'ektni soliqlar va boshqa majburiy

to'lovlarni to'lashning belgilangan tartibini buzganlik uchun qonun hujjalarda nazarda tutilgan jarimalardan ozod etmaydi.

Özbekiston Respublikasi Qonuni: Auditorlik faoliyati to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 10-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2021-yil 5-fevralda ma’qullangan hisoblanadi.Ushbu qonun 9 bob ,55 moddadan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 4-avgust PQ-5210-sон qarori ijrosini ta’minalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror asosida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-sон qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risida qonunni ilova qilgan hisoblanadi.

Farqi

**Xalqaro standartlar (ISA):** Xalqaro auditorlik va ishonchlik standartlari kengashi (IAASB) tomonidan ishlab chiqiladi.Dunyo bo‘ylab auditorlar tomonidan qo‘llaniladi va xalqaro korporatsiyalar uchun mo‘ljallangan.Xalqaro miqyosda muvofiqlashtirilgan, barcha mamlakatlar uchun bir xil asosiy tamoyillarni belgilaydi.Auditni rejalashtirish, xavflarni baholash, tekshirish va hisobot berish bo‘yicha umumiy qoidalarni belgilaydi.Xalqaro tashkilotlar va transmilliy kompaniyalar uchun majburiy bo‘lishi mumkin.

**Milliy standartlar (O‘MAS):** O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.O‘zbekistonning milliy qonunchiligiga asoslangan va mamlakat ichidagi tashkilotlarga nisbatan qo‘llaniladi.Milliy qonunchilik, soliqqa tortish tizimi va iqtisodiy sharoitlarni hisobga oladi.ISA ga

asoslangan bo‘lsa-da, ba’zi talablar milliy qonunchilikka moslashtirilgan.O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun qonuniy asos sifatida qo‘llanadi

**Xulosa:** Auditorlik xulosasi tashkilotning moliyaviy hisobotlarini mustaqil baholash natijalarini aks ettiruvchi asosiy hujjat bo‘lib, uning ishonchliligi va haqqoniyligini tasdiqlaydi. Auditorlik xulosasining turi moliyaviy hisobotlardagi kamchiliklarning mavjudligi va ularning ta’sir

darajasiga bog‘liq holda aniqlanadi. Shartsiz xulosa tashkilotning moliyaviy hisobotlari auditorlik standartlariga muvofiq ekanligini bildirsa, shartli va rad etilgan xulosalar mavjud kamchiliklarga e’tibor qaratadi. Auditorlik xulosasi investorlarga, kreditorlarga va boshqaruv organlariga asosli qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Shu sababli, auditorlik jarayonida xalqaro standartlarga rioya qilish va moliyaviy tahlil metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

- 1.Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot: monografiya. – T.: Moliya nashriyoti, 2007. – 276 b.;Foydalanilgan adabiyotlar
2. O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan auditorlik standartlari va me’oriy hujjatlar.
4. Berdieva G.X., Rajabov A.R. "Auditorlik asoslari" – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
5. Muhammadjonov H., Hasanov S. "Moliyaviy hisobot va auditorlik" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019
6. Auditorlik va moliyaviy tahlil bo‘yicha ilmiy maqolalar va internet manbalari.